

Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand Davlat Arxitektura Qurilish Universitet talabalari orasida barqaror muhit yaratish va ularga barqarorlik tamoyillarini singdirish maqsadida universitet "Barqarorlik qo'mitasi" tomonidan tashkil etilgan "BARQARORLIK KURSI" seminar trening oktabr oyi

BAYONNOMASI

Universitet: Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti

Sana: 15- oktabr 2025 yil

Joy: kichik faollar zali

Tadbir turi: Seminar-trening

Mavzu: Iqlim o'zgarishi va ekologik barqarorlik

Tashkilotchi: QS va xalqaro reytinglar bo'limi

Ishtirokchilar: Talabalar

Ishtirokchilar soni: 124 nafar

Qatnashdilar: Strategik rivojlantirish bo'yicha birinchi prorektor, strategic rejalashtirish koordinatorligi ofis mutaxassisi, xalqaro reytinglar va akkreditatsiyalar koordinatorligi ofisi mutaxassislari, talabalar, tyutorlar va professor-o'qituvchilar

KUN TARTIBI

1. Iqlim o'zgarishi: sabablar va global muammolar
2. Iqlim o'zgarishining atrof-muhit va jamiyatga ta'siri
3. Ekologik barqarorlik va "Green Campus" tashabbusi
4. Talabalarning ekologik mas'uliyati va amaliy tashabbuslari

ESHITILDI

Seminar davomida iqlim o'zgarishining asosiy sabablari, global ekologik muammolar hamda ularning jamiyat va atrof-muhitga ta'siri haqida ma'ruza qilindi. Shuningdek, universitetda ekologik barqarorlikni ta'minlash, yashil hududlarni kengaytirish, energiya va resurslarni tejash, chiqindilarni kamaytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar haqida ma'lumot berildi. Iqlim o'zgarishi — Yer atmosferasidagi harorat va ob-havo tizimlarining uzoq muddatli o'zgarishidir. Asosiy sabablaridan biri issiqxona gazlari (karbonat anhidrid, metan va boshqalar) miqdorining ortishidir. Bu gazlar sanoat, transport, o'rmonlarning qisqarishi va energiya ishlab chiqarish jarayonida ko'payadi. Natijada global isish, muzliklarning erishi, qurg'oqchilik, kuchli yog'ingarchilik va tabiiy ofatlar sonining ortishi kuzatiladi.

Ekologik barqarorlik esa tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik muvozanatni saqlashni anglatadi. Iqlim o'zgarishining salbiy ta'sirini kamaytirish uchun energiya tejash, qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, ko'kalamzorlashtirish va suv resurslarini asrash muhim ahamiyatga ega. Bu choralar nafaqat tabiatni himoya qiladi, balki inson salomatligi va iqtisodiy barqarorlikka ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Global miqyosda iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish va ekologik barqarorlikni ta'minlash masalalari Birlashgan Millatlar Tashkiloti tashabbuslari orqali ilgari surilmoqda. Davlatlar, tashkilotlar va ta'lim muassasalari barqaror rivojlanish tamoyillarini joriy etish, ekologik madaniyatni oshirish va yashil texnologiyalarni qo'llash orqali iqlim muammolarini kamaytirishga hissa qo'shmoqda.

Tadbir davomida talabalar ekologik madaniyatni oshirish, daraxt ekish aksiyalarida faol ishtirok etish, ekologik tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash zarurligi ta’kidlandi.

QAROR QILINDI

1. Talabalar o‘rtasida ekologik madaniyatni oshirish bo‘yicha targ‘ibot ishlari davom ettirilsin.
2. Daraxt ekish va yashil hududlarni kengaytirish aksiyalari tashkil etilsin.
3. Energiya va resurslarni tejash bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar kuchaytirilsin.
4. Seminar materiallari, foto va dalillar QS Sustainability platformasi uchun arxivlansin.



Mas’ul: Mamadaliyeva Farangiz Latifovna



Imzo: 